



TASDIQLAYMAN

“Shurtan GKM” MCHJ

Bosh direktor o‘rinbosari

J. Xalimov



2023 y

Reg: 074/019-3254

“SHO‘RTAN GKM” MCHJ TASARRUFIDAGI “LOCHIN” BOLALAR  
SOG‘LOMLASHTIRISH OROMGOHI AKTIVLARINI BAHOLASH TO‘G‘RISIDAGI  
HISOBOTLARNING HAQQONIYLIGINI EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH UCHUN

**XIZMAT KO‘RSATISHGA TEXNIK TOPSHIRIQ**

SHGKM 2023 yil

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

### 1.1. Baholash hisobotining ishonchliligini ekspertiza ob'ekti

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani, "Miraki" qo'rg'onida joylashgan "Lochin" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi aktivlarini baholash hisobotining ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish

### 1.2. Xizmat ko'rsatishga asos va maqsad

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25 martdagi 143-F/6-son farmoyishi, O'zbekneftgaz AJning 2023 yil 14-apreldagi 38-sonli qarori. "Sho'rtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ ning 03.05.2023 yildagi 016/121-i/ch buyrug'i

**Maqsad:** "Lochin BSO"ning ko'chmas mulk obyektlari joriy bahosini aniqlash bo'yicha baholash hisobotining ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish

## 2 Qo'llaniladigan baholash standartlari.

O'zbekiston Respublikasining tegishli baholash standartlari

## 3. Mustaqil ekspert tashkilotiga qo'yiladigan talablar.

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etilishi shart:

- Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi, O'zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya nusxasi, sug'urta polisi taqdim etilishi shart.;

- ish tajribasi va baholovchining mijozlari. Ushbu bo'lim eng yirik mijozlar ro'yxatini (5-6 ta korxonada) o'z ichiga olishi kerak, ular hisobotining ishonchliligi baholovchi tomonidan o'rganilgan bo'lishi kerak;

- baholovchi xodimlar. Ushbu bo'limda baholovchi xodimlarining qisqacha tavsifini o'z ichiga olishi kerak. (jumladan: baholovchining malaka sertifikatlari).

- ishni yakunlash va hisobotni topshirish sanasi. Hisobotning ishonchliligini tekshirish va ekspertiza o'tkazish shartlari ko'rsatilishi kerak.

- ko'rsatiladigan xizmat narxi. Ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy qiymati, shu jumladan QQS ko'rsatilgan holda.

## 4 Baholash davri.

01.05.2023 yil holatiga.

## 5. XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI.

Baholash hisoboti olingan kundan boshlab etti kun ichida.

## 6. XIZMAT KO'RSATISHGA QO'YILADIGAN UMUMIY TALABLAR.

1. Ekspertiza O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq o'tkaziladi.
2. Ekspertiza natijalariga ko'ra xulosa tuziladi.
3. Ekspert xulosasi shakli:  
pdf formatidagi yozma, elektron nusxasi;
4. Xulosa tili: o'zbek yoki rus.

## 7. XIZMAT KO'RSATUVCHINING JAVOBGARLIGI

1. Buyurtmachi tomonidan biznes, aktivlar va majburiyatlar bo'yicha taqdim etilgan moliyaviy ma'lumotlarni, shuningdek, ushbu aktivlarning kelajakdagi pul oqimlari prognozlarini tahlil qilish;
2. Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan har qanday moliyaviy ma'lumotlarni sir saqlanishini kafolatlash.

## 8. TO'LOV SHARTLARI

Shartnoma umumiy summasining 15% miqdoridagi to'lov "Xizmat ko'rsatuvchi"ning maxsus hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 85% to'lov amalda ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiy miqdori (Bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnoma, hisob varaqalari) bilan amalga oshiriladi.

Ishlab chiquvchi:

Iqtisod va rejalashtirish  
bo'limi boshlig'i



X. Jabborov

**Kelishildi :**

Bosh hisobchi



Sh. Umarov

Moliya va g'aznachilik bo'limi boshlig'i



F. Norbo'tayev

Ishonchlilikni boshqarish xizmati boshlig'i



T. Diyorov

Bosh hisobchi o'rinbosari



N. Toirov

Iqtisod va rejalashtirish bo'limi iqtisodchisi



H. Roziqov